

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.Sh.Shermuhhammadov, X.N.Qosimova</b> Kitobxonlik – buyuk kelajak kafolati.....	8
<b>T.A.Egamberdiyeva</b> Turkiy xalqlar milliy madaniyatlarini shakllanishining ijtimoiy va etnopedagogik asoslari .....	13
<b>N.T.To‘xtaboyev</b> Balandlikka sakrovchi sportchilar tayyorlaydigan murabbiylar o‘rtasida anketa so‘rovnomasini tahlili .....	18
<b>I.B.Siddiqov</b> Tarixiy-badiiy asarlar bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishning muhim omili sifatida.....	25
<b>N.R.Gafurova, T.A.Egamberdiyeva</b> Ta‘lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tolerantlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning maqsadli pedagogik tizimi .....	28
<b>Sh.A.Mamajonov</b> Oliy ta‘lim muassasalarida ekologik tarbiyani amalga oshirish mexanizmlarini rivojlantirish.....	32
<b>M.M.Kuzibayeva</b> Vrach-shifokorning pedagogik faoliyatiga qo‘yiladigan vazifalar.....	37
<b>K.R.Abdullayev</b> Xalq pedagogikasi vositasida o‘quvchilar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	39
<b>Sh.K.Xujamberdiyeva</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning zamonaviy texnologiyalari .....	43
<b>U.Q.Maqsudov, R.A.Abdullayev</b> Talabalarning ma‘naviy-axloqiy kompetentligini jadid pedagogikasi vositasida rivojlantirishning imkoniyatlari .....	48
<b>R.Z.Xayrov</b> Bo‘lajak tasviriy san‘at o‘qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorgarligida pedagogik tashxis va baholash mezonlari.....	54
<b>G.U.Radjabova</b> Ta‘lim tashkilotining marketing strategiyasini shakllanishi.....	61
<b>Г.К.Якубова</b> Сравнительная динамическая двигательная потенциала детей с нормативными требованиями первой и второй возрастной групп тестов здоровья "Здоровье" .....	67
<b>M.M.Xamroliev</b> Fanlararo hamkorlik asosida o‘quvchilar bilimni rivojlantirishning pedagogik asoslari .....	73
<b>U.V.Mamadjanov</b> Maktabda musiqa fanini o‘qitishning metodologik asoslari .....	76
<b>S.X.Kaxxarov</b> Yoshlarda harbiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari .....	80
<b>X.X.Tojiyev</b> Texnologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda innovatsion ta‘lim texnologiyalarini qo‘llash .....	85
<b>D.S.Sobirov</b> Ta‘limdagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va uning pedagogik jihatlari .....	92
<b>D.Z.Isaboyeva</b> Boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilarida zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirishning pedagogik psixologik asoslari (Xalqaro baholash dasturi) .....	96
<b>F.Q.Yusupjanova</b> O‘qituvchining pedagogik qobiliyatlari va uning komponentlari .....	99
<b>X.A.Ustadjalilova</b> Pedagogik tadqiqotlar metodlari va statistik gipotezalarning nazariy jihatlari.....	102

**BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINI KASBIY-METODIK  
TAYYORGARLIGIDA PEDAGOGIK TASHHIS VA BAHOLASH MEZONLARI****ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ДИАГНОСТИКА И КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ В  
ПРОФЕССИОНАЛЬНО-МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ  
ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА****PEDAGOGICAL DIAGNOSTICS AND EVALUATION CRITERIA IN THE  
PROFESSIONAL AND METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS OF FINE  
ARTS****Xayrov Rasim Zolimxon o'g'li<sup>1</sup>**<sup>1</sup>Guliston davlat pedagogika instituti, dotsent**Annotatsiya**

*Maqolada bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorgarligida pedagogik tashxislash, nazorat va baholashning ilmiy-pedagogik asoslari bayon etilgan. Talabalarni tashxislash orqali ularning o'quv imkoniyatlarini, bilim va malakalarni tekshirish xususiyatlari, kasbiy-metodik tayyorgarligini baholash modeli ishlab chiqilgan. Shuningdek, ta'lim texnologiyalari asosida o'qish natijasida umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan bilimlarini o'sish imkoniyatlarini yaratib berish usullari yoritib berilgan.*

**Аннотация**

*В статье описываются научно-педагогические основы педагогической диагностики, контроля и оценивания будущих учителей изобразительного искусства в процессе их профессиональной и методической подготовки. Посредством диагностики студентов была разработана модель оценки их образовательных возможностей, особенностей проверки знаний и квалификации, профессионально-методической подготовки. Также в результате обучения на основе образовательных технологий выделяются методы создания возможностей для роста знаний из общих и специальных дисциплин.*

**Abstract**

*The article describes the scientific and pedagogical foundations of pedagogical diagnostics, control and evaluation of future teachers of fine arts in the process of their professional and methodological training. By means of diagnostics of students, a model was developed for assessing their educational opportunities, features of knowledge and qualification testing, professional and methodological training. Also, as a result of training based on educational technologies, methods of creating opportunities for the growth of knowledge from general and special disciplines are highlighted.*

**Kalit so'zlar:** kasbiy-metodik, pedagogik tashhis, nazorat, tekshirish, baholash, mezon, kredit-modul, model, o'quv imkoniyatlari.

**Ключевые слова:** профессионально-методическая, педагогическая диагностика, контроль, верификация, оценка, критерий, кредитный модуль, модель, образовательные возможности.

**Key words:** professional-methodical, pedagogical diagnostics, control, verification, evaluation, criterion, credit module, model, educational opportunities.

**KIRISH**

Bugungi kunda respublikamizda milliy ta'lim tizimining huquqiy asoslarini shakllantirish uchun keng sharoit yaratildi. O'z navbatida, islohotlar ta'lim tuzilmasi va mazmun-mohiyatini takomillashtirish imkonini berdi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Biz ta'lim va tarbiyatizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz" [1;22]

Ta'lim jarayonini bir tizim deb qaraydigan bo'lsak uni tashkil etuvchi elementlari: ta'lim maqsadi, o'quv maqsadlari (kutlayotgan natijalar), ta'lim beruvchi, tahsil oluvchi, ta'lim mazmuni, ta'lim metodi, pedagogik tashhis, nazorat va baholashdir. Ushbu ta'lim jarayonini loyihalashtirishda yuqorida sanab o'tilgan elementlardan birortasi e'tibordan chetda qolsa yoki noto'g'ri tanlangan bo'lsa tizim ishlamaydi, demakki, ta'lim jarayoni oldiga qo'yilgan maqsadga erishilmaydi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligi, shakllanganlik darajasini nazorat qilish, baholash tashxislashning zaruriy tarkibiy qismlari sanaladi. Bu tarkibiy qismlariga - nazorat, baholash va hisobga olish tushunchalari kiradi [11; 57].

Tasviriy san'atda pedagogik-psixologik tashxisning tutgan muhim o'rni shundaki, har bir talabani individual xususiyati hisobga olingan holda, ularning bilim, ehtiyojiga mos ta'lim mazmunini darajama-daraja taqdim etib boriladi. Demak, pedagogik-psixologik tashxis ishlarini amalga oshirish muammolarini hal etishdan avval nimani tashxis qilish, nimani aniqlash, talabalar nimani bilishlari va bajara olishlari kerakligini, bilim, ko'nikma va malakalarni olganligi miqdor va sifat jihatdan ob'ektiv o'lchash uchun qanday mezonlarga tayanish lozimligini ilmiy asosda hal etish muhimdir [11; 59].

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

*Pedagogik tashxis va baholash mezonlari* tushunchalari o'ziga xos mohiyat va xususiyatlarga ega. O'qituvchi nazorat va hisobga olishni to'g'ri tashkil etsa, ta'lim jarayonining samaradorligi ortadi. Buning uchun bo'lajak o'qituvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasini aniqlab borishi lozim. Ular ta'lim jarayonining dastlabki metodlaridir. Nazorat va baholash oliy ta'lim rivojining doimiy hamrohi bo'lib kelgan. Oxirgi yillarda ko'p pedagogik olimlarning ta'kidlashicha, demokratlashgan ta'lim tizimida yuzaki (formal) nazorat bo'lmasligi lozim. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida pedagogik tashxis va baholash mezonlari muammolari bilan N.V.Kuzmina, A.S.Belkin, A.K.Markova, N.A.Muslimov, J.O.Tolipova, I. P.Podlaso'y, O.A.Qo'ysinov, U.A.Maxmonov, K.B.Qodirov, F.U.Nazarova, N.B.Normurodova, R.Hasanov, S.Abdirasilov va boshqalar asarlarida o'z ifodasini topgan [9; 221].

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-metodik tayyorgarligini aniqlashning o'ziga xos murakkab muammolaridan biri pedagogik-psixologik tashxis masalasidir. Darhaqiqat, aynan psixologik-pedagogik tashxisni to'g'ri amalga oshirish orqaligina talabalarni ularning kasbiy-metodik tayyorgarligi bo'yicha tabaqalashtirib, individual yondashuv uchun imkoniyatlariga ko'ra to'g'ri taqsimlash, guruhlarga ajratish mumkin va bu bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligi ta'limining deyarli eng asosiy, eng og'ir va muammolarga boy tomonini tashkil qiladi" deb ta'kidlaydi dots. K.B. Qodirov [2; 12].

Shunga qaramasdan, mutaxassislik mashg'ulotlarida talabalar yuzasidan o'tkaziladigan pedagogik-psixologik tashxis mazmunini ishlab chiqishda talabalarga beriladigan bilim va malakalarning hajmi va chuqurligi, topshiriqni bajarishga ketadigan vaqti, talabani mustaqil ishlari mazmuni, topshiriqni bajarishga bo'lgan layoqati hisobga olinadi [5; 1171-1175]. Tashxis zaruriyatga qarab quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- *talabalarda o'qishga bo'lgan ijobiy munosabatning shakllanganlik darajasini aniqlash.* Bunda ularning o'z faoliyatlarini to'g'ri rejalashtira olishlari, o'zlarini-o'zlari nazorat qila olishlari o'quv faoliyatlarini tegishli tezlikda bajara olishlari muhim shartdir [38];

- *talabalaridagi ruhiy holatlarni, ayniqsa, tafakkur, tasavvur, xotira, his-hayajon idrok kabilarning darajasi.* Bunda talabani o'rganilayotgan materiallardan asosiysini ajrata olishi, mustaqil fikrlashi masalasiga yanada ijodiy yondashuvi tahlil qilinadi;

- *talabani o'qishga, o'rganishga, mutaxassislik o'quv predmetlariga bo'lgan munosabati.* Shuningdek, talabani qaysi predmetga etakchi qiziqishi va havaslarini ham aniqlash muhim hisoblanadi.

- *talabani g'oyaviy va axloqiy tarbiyalanganlik darajasi.* Bunda ularning kasbiy-metodik tayyorgarlikning qanchalik keyingi faoliyatlarida zarurligini ongli ravishda tushunib etishlari, odobi, mehnat va ijro intizomi ham nazarda tutiladi;

- *talabalarining mutaxassislik o'quv predmetlarida ishchanlik va tirishqoqlik darajasi;*

- *tashxis qo'yish vaqtida talabalarining mutaxassislik o'quv predmetlari bo'yicha bilim va malakalarining hajmi va darajasi.*

Ta'lim natijasi (ta'lim mahsuli) - ta'lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha, belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi, o'quv jarayonining oqibati demakdir. Ta'lim jarayonida o'qituvchi talabalar bilimni turli xil usullar bilan nazorat qiladi va ushbu nazorat natijalarini, albatta tahlil qilib chiqadi. Bu jarayonda o'qituvchi talabalarining bilim, ko'nikmalarini tekshiradi, xatolarini aniqlaydi, ularning o'zlashtirish darajasiga ko'ra xulosalar chiqaradi. Bu jarayonning barchasida ta'lim harakati belgilanib, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. O'qituvchi talabalar bilimni har xil nazorat turlari yordamida tekshiradi va baholaydi.

F.U.Nazarova tekshirishdan tashqari nazorat o'z ichiga baholashni (jarayon sifatida) va bahoni (natija sifatida) ham oladi, deb ta'kidlaydi. Baholash deb bilim, ko'nikma va malakalarni o'quv dasturida ko'rsatilgan etalon (ko'rsatkich, qolip, o'lchagich) lar bilan solishtirishni aytamiz.

Baho, deb baholashning ball shaklida ko'rsatilgan son jihatdan o'lchashiga aytiladi. O'zlashtirish tabellari, guruh jurnallari, elektron platformada reyting ko'rsatgichlari va shu kabilarda baholash shartli belgilar, kod signallari, xotiralash belgilari va hokazolar baho ko'rinishida qayd etiladi. Ta'lim oluvchining o'zlashtirish darajasini baholash uchun nazorat yakunlari (natijalari) asos bo'ladi. Bunda ta'lim oluvchilar ishining ham sifat, ham miqdor ko'rsatkichlari hisobga olinadi [6; 17].

Demak, o'zlashtirishni nazorat qilish va hisobga olish nazorat, o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarini bajaradi.

Ta'lim jarayonida **nazorat** - ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayonini anglatadi.

Professor J.O.Tolipova [7; 28-31] fikricha kasbiy-metodik tayyorgarlikni rivojlantirish asosida tashkil etiladigan ta'lim jarayonida foydalaniladigan nazorat topshiriqlari turli qiyinlik darajalari asosida tuzilishi va har bir topshiriqning qiyinlik darajasi aniq bo'lishi kerak, deb ta'kidlaydi.

U.A.Maxmonovning "Kredit-modul tizimida talabalar bilimni baholashning o'ziga xos xususiyatlari" ilmiy ishida fanlardan talabalarni baholash loyixasini taklif etgan [4; 12-18]. Talabaning qo'lida har bir fandan kreditlarni to'plash tartibi va qancha kredit to'plaganligini doimiy tarzda ko'rsatib turuvchi, uning fanlardan to'plagan kreditlari miqdori aks etuvchi hujjat bo'lishi kerak, degan fikrlarni ilgari surgan.

### NATIJALAR

Umuman, tasviriy san'atdan ta'lim jarayonida pedagogik va psixologik tashxisning keng ko'lamda joriy etilishi tasviriy san'at ta'limi samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega bo'lib, talabalarning mutaxassislik o'quv predmetlari bo'yicha qanday metod, unga qanday yondashuv, topshiriqlar dozasini bilib olish asos bo'ladi. Tashxisni belgilash esa asosan shu talaba haqida tegishli atroflicha va chuqur ma'lumotlarni olishga yordam beradi. Shu maqsada talabalar uchun tashxisning quyidagi turlari qo'llaniladi: 1) dastlabki, 2) oraliq, 3) yakuniy. (1-jadval)

**1-jadval. Pedagogik tashhislash mazmuni.**

No	Turi	Mazmuni
1.	<b>Dastlabki</b>	Talabalar bilan birinchi tashxis o'tkazilganda amalga oshiriladi va u keng, chuqur o'tkaziladi. Bunday tashxislash zaruriyatga qarab o'quv kursi yoki bo'limida bir yoki ikki marta o'tkazilishi mumkin.
2.	<b>Oraliq</b>	Bo'limlar yoki kurslar o'rtasida talabalarning mutaxassislik o'quv predmetlarida olgan bilim va malakalaridagi o'zgarishlarini aniqlaydi. Tashxislashini o'qituvchi zaruriyatga qarab ikki marta o'tkazishi ham mumkin.
3.	<b>Yakuniy</b>	Bo'limlar yoki kurs oxirida o'tkaziladi va talabalarning kurs davomida mutaxassislik o'quv predmetida o'zlashtirgan bilim va malakalari darajasini aniqlash imkonini beradi. Bunda har bir talabaning semestr oxiridagi faoliyat natijalari yil boshidagi bilim va malakalari bilan solishtirish orqali amalga oshiriladi.

Talabalarning individual-psixologik rivojlanganlik darajasini aniqlashning psixologik-pedagogik metodlari: kuzatish, mashqlar, og'zaki so'rov, suhbat, anketa, test, yozma (matnli) mustaqil ish, talabalarni tasviriy-ijodiy mahsullarini o'rganish, pedagogik tajriba-eksperimentidan ham foydalaniladi.

Yuqorida qayd qilingan mezonlar asosida o'qituvchi talabalarni tashxislash orqali ularning o'quv imkoniyatlarini aniqlaydi (2-jadvalga qarang). Talabalardagi o'quv imkoniyatlarni uch toifaga bo'lish mumkin: 1. Yuqori daraja. 2. O'rta daraja. 3. Quyi darajada o'zlashtiruvchi.

**2-jadval. O'quv imkoniyatlari.**

Daraja	Darajalari mazmuni:
1 <b>Yuqori darajada</b>	Talabalar har qanday sharoitda avvallari o'zlari o'zlashtirgan bilimlarni kerakli paytda namoyish eta oladilar. Yangi va kreativ g'oyalarni ilgari suradilar. Zarurat tug'ilganda ulardan yangi materiallarni o'zlashtirishda foydalana oladilar. Xususan, ular muhim belgilarni ajratishda, umumlashtirishda yangi tushunchalarni ajratib ko'rsatishda, yangi bilimlarni o'zlashtirishda namoyon bo'ladi.

2	<b>O'rta darajada</b>	Talabalar yangi materiallar o'rtacha tezlikda o'zlashtira oladilar. Ko'p hollarda yangi g'oyalarni taklif etadilar. Ko'pincha fanlar kesimida bilim zahiralarning etishmasligi kuzatiladi. Ayrim yangi materiallarni o'zlashtirish og'irlik bilan kechadi.
3	<b>Past darajada</b>	Talabalarda amaldagi bilimlar jamg'armasi etarli emas, ular yangi materiallarni tahlil qila olmaydilar. Ko'p xolatlarda amaliy topshiriqlarni bajarishda qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yilganligi kuzatiladi.

Talabalarni o'qitishda ularning aqliy zakovatini hisobga olish ham muhimdir. Bu sifatlarini ham uch darajaga bo'lish mumkin:

1. **Aqli zakovati yuqori darajada** shakllangan talabalar boshqalardan materiallarni erkin tahlil qilishlari, muhim jihatlarni ajrata olishlari, tez umumlashtira olishlari va mavhum (abstrakt) fikr yurita olishlari, yangi tushunchalarni tez anglab olishlari bilan farqlanadilar. Yuqori darajada aqliy zakovati shakllangan talabalar nihoyatda murakkab tuzilishdagi materiallarni tahlil qilishda qiyinchiliklarni his etadilar.

2. **O'rtacha aqliy zakovatli** talabalar o'quv materiallarini hamda ularning muhim sifatlarining tahlilida qiynaladilar. Biroq, ular o'qituvchi yordamida topshiriqlarni bajara oladilar.

3. **Aqli zakovati sust** talabalar o'quv materiallari tahlilida tushuncha, umumlashtirish, mavhumlashtirishning muhim sifatlarini ajrata olmaydilar [8; 2-5].

Talabalarning bilim va malakalarini tekshirish quyida ko'rsatilgan mantiqiy ketma-ketlikda olib borilishi kerak:

### 3-jadval. Bilim va malakalarini tekshirish xususiyatlari

No	Xususiyatlar
1	Tekshirish tizimidagi <b>birinchi bo'g'in</b> ta'lim oluvchilarning bilim darajasini oldindan aniqlash hisoblanadi. Odatda, u o'quv yili boshida Talabalar tomonidan avvalgi o'quv yilida o'zlashtirilgan bilimlari darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Bu kabi tekshirish, shuningdek, o'quv yilining o'rtasida yangi bo'lim (kurs)ni o'rganishga kirishilganda ham o'tkazilishi mumkin va o'rinli bo'ladi.
2	Bilimlarni <b>tekshirishning ikkinchi bo'g'ini</b> har bir mavzuni o'zlashtirish jarayonidagi joriy tekshirishdir. Joriy tekshirish ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv dasturida belgilangan ayrim alohida elementlarni o'zlashtirish darajasini tashxislash imkonini beradi. Mazkur tekshirishning asosiy vazifasi o'rgatishdir. Bunday tekshirishning shakl va metodlari turlicha bo'lib, ular o'quv material mazmuni, murakkabligi, Talabalarning yoshi va tayyorgarligi, ta'lim bosqichi va maqsadlari, muayyan pedagogik sharoitlarga bog'liq bo'ladi.
3	Takroriy tekshirish bilim, ko'nikma va malakalarni <b>tekshirishning uchinchi bo'g'ini</b> sanalib, joriy tekshirish kabi mavzuli bo'lishi mumkin. Yangi mavzuni o'rganish bilan birga Talabalar avval o'rganilganlarni takrorlaydilar. Takroriy tekshirish bilimlarni mustahkamlashga ko'maklashadi, biroq o'quv ishlari bosqichini tavsiflash, bilimlarni o'zlashtirish mustahkamligi darajasini tashxislash imkonini bermaydi. Ushbu tekshirish tashxisning boshqa turlari va metodlari bilan birga qo'llanilsagina kutilgan samarani beradi.
4	<b>Tizimning to'rtinchi bo'g'ini</b> Talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini yaxlit bo'lim yoki kursning alohida mavzusi bo'yicha davriy tekshirish hisoblanadi. Mazkur tekshirishning maqsadi — kursning turli qismlarida o'rganilgan o'quv materialining strukturaviy elementlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'zlashtirish sifatini tashxislash. Davriy tekshirishning asosiy vazifasi — tizimlashtirish va umumlashtirish.
5	<b>Tekshirishni tashkil etishda beshinchi bo'g'in</b> ta'lim oluvchilarning, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini yakuniy tekshirish va hisobga olishdir. O'zlashtirishning yakuniy hisobi har bir chorak va o'quv yili oxirida o'tkaziladi. U olingan baholarni qo'shib, o'rtacha arifmetik ballni mexanik tarzda chiqarishdangina iborat bo'lmasligi lozim. Bu, avvalo, mazkur bosqichda belgilangan maqsadga muvofiq tarzda amaldagi ta'lim olganlik darajasi (sifati)ni tashxislashdir.

Talabalarning o'quv imkoniyatlarini kuzatib borishda o'qituvchiga hemis elektron platformasiga kiritilgan baholar ham yordam beradi. Talabalardagi o'quv imkoniyatlarini aniqroq belgilash uchun ularning o'quv faoliyatlarini kuzatib turish, ular orasida tashxis o'tkazib turish kerak bo'ladi. Ular mutaxassislik o'quv predmetlari bo'lib talabalar tomonidan o'quv materiallarini qanchalik o'zlashtirib ketayotganligini bildiradi [5; 1171-1175]

Demak, o'zlashtirishni nazorat qilish va hisobga olish nazorat, o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarini bajaradi.


### MUHOKAMA

Yuqoridagi fikrlar e'tiborga olingan holda talabalar tomonidan ta'lim mazmunining barcha tarkibiy qismlarini o'zlashtirish darajasini aniqlashda topshiriqlardan foydalanish zarurati kelib chiqmoqda.

A.V.Savchenko o'zining "Metodika vospitatelnoy raboti" o'quv qo'llanmasida, **baho** - o'zida nafaqat rag'batlantirish va jazolashni usullarini, balki tarbiyalash vazifasini ham mujassamlashtiradi, deb ta'kidlagan. Asosiysi eng quyi baho yoki eng yuqori baho ham undovchi vazifani bajarmaydi. Tasviriy san'atdan kasbiy-metodik tayyorgarlik darajasini baholash turlari: talabaning shaxsiy pedagogik baholari: bunda talabaning individual xislatlari, intilishlari, ko'nikmalari baholanadi: tasviriy san'at predmetlariga qaratilgan baholar: bunda talabaning bajargan ishining natijasi, jarayoni, mazmuni, predmeti baholanadi; moddiy pedagogik baholar: bunda esa talabalarni ta'lim - tarbiya ishidagi muvafaqqiyatlari uchun turli metodlarda qiziqarli narsalar orqali baholanadi; ma'naviy pedagogik baho: talabanig maqtov yoki faxriy yorliqni o'z ichiga oladi, bunda talabaning axloq normalariga mosligi baholanadi; jarayonli pedagogik baho: bunda oxirgi natijaga qanday erishishganligi emas, natijaga erishishga nima undaganligiga urg'u beriladi.

Bilim sifatini baholash turlari:

1. Ilmiy- g'oyaviy tayyorgarligi.
2. Muammoni tushunish va egallab olganlik darajasi
3. Muammoni tushunishning chuqur asoslanishi.
4. Sohasi bo'yicha asosiy adabiyotlar bilan tanishligi (darslik, qo'shimcha adabiyotlar, matbuot yangiliklari).
5. Nazariy bilimlarni amalga tatbiq eta olishi.
6. Javoblarning mantiqiyiligi, tuzilishi, stili va bilgan nazariy muammolarni, xulosalarni himoya qila olishi.
7. Mutaxassislik muammolarining tarixi, hozirgi va kelajagi bilan tanishligi.
8. Ixchamligi (nazariy bilimlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini o'zi top-ganligi)
9. Bilimlarning puxtaligi v.b.



**1-rasm. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini tekshirish modeli**

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorgarligi darajasini tekshirish va baholash muayyan didaktik talablarga javob berishi kerak. Tekshirish va nazorat qilish doimiy tarzda, tizimli, bo'lishi shart.

Bilimlarni baholash va nazorat qilish individual xarakterga egadir. Har bir talaba uning qaysi bilimlari, ko'nikma va malakalari baholanayotganini bilishi kerak.

Yuqorida ko'rib chiqilgan ma'lumot va tahlillarga asoslanib bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini baholash modelini ishlab chiqdik (3-rasm).

Bu kichik modelda quyidagilar o'z aksini topgan:

- boshlang'ich kasbiy-metodik tayyorgarlik;
- ta'lim texnologiyasi asosida o'qitishning tajriba-sinov bosqichi;
- bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini darsga qiziqtirish omillarini qo'llash bosqichi;
- kasbiy-metodik tayyorgarlikni shakllantirish va pedagogik ijodkorlikni rivojlantirish samaradorligini baholash bosqichi;
- kasbiy-metodik tayyorgarlikni takomillashtirishga imkon beradigan qayta bog'lash tizimi bosqichi [3; 169].

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilar tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilishi darajasiga va ularda amaliy ko'nikmalar mustahkamlanishiga qarab kasbiy-metodik tayyorgarlikni shakllanishini sifatli va miqdoriy baholash mezonlari shakllantirildi va quyidagicha ta'rif berildi:



- produktiv darajali mezon – talabalarning egallagan bilimlari asosida noodatiy toshiriqlarni bajara olishi bilan belgilanadi;
- reproduktiv darajali mezon – rejalashtirilgan topshiriqlarni, ya'ni bilimlarni, tushunchalarni, qonunlar va formulalarni past darajada tushunib etganligi bilan belgilanadi;
- qisman izlanuvchan darajali mezon – nostandart vaziyatlarni hal eta olish ko'nikmalari e'tiborga olinadi;
- kreativ darajali mezon - ijodiy topshiriqlarni bajara olish ko'nikmalari e'tiborga olinadi.

Kasbiy-metodik tayyorgarlikni baholash mezonlari bu ta'lim samaradorligining sifatli ko'rsatkichlari: o'zlashtirish, bilimlarni o'zlashtirish darajasi, ta'lim olish darajasining motivatsiyalari, ko'nikmalarning shakllanganlik darajasi hisoblanadi.

### XULOSA

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shunday xulosaga kelish mumkin, ya'ni kasbiy-metodik tayyorgarlikni shakllantirish samaradorligining baholanishi ta'lim texnologiyalari asosida o'qish natijasida umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan bilimlarni egallab, ularni bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilar o'z kasbiy faoliyatini egallash jarayonida o'z o'rnida qo'llay olishi, har xil vaziyatlarda muammolarni to'g'ri hal qilishi va to'g'ri xulosalar qabul qilishi va shu kabilar kiradi. Bunda ta'lim yo'nalishlari, fanlar xususiyati, mutaxassislik talablarini hisobga olish ayniqsa muhim. Mutaxassislik xususiyatlariga qarab ba'zi fanlarni baholash jarayonini soddalashtirish mumkin. Test sinovi va mustaqil ish, test sinovi va yozma ish, test sinovi va amaliy ish imtihoni, test sinovi va og'zaki imtihon kabi baholash turlari bilan kursni yakunlashni joriy qilish talabalarning mutaxassislik fanlarini chuqur va samarali o'zlashtirishlariga zamin yaratishi mumkin, deb hisoblaymiz.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti yo'lida bo'lajak malakali pedagog kadrlar, keng bilimli mutaxassislarni tayyorlab berish oliy ta'limning asosiy vazifasi ekan, bu maqsadga ta'lim jarayonini mavjud imkoniyatlari, ta'lim berishning xalqaro tan olingan metod va vositalaridan unumli foydalanib izchil ravishda samaradorligini oshirib borish, ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini bo'lgan bo'lajak o'qituvchilarga pedagogik faoliyatlarida o'sish imkoniyatlarini yaratib berish orqali erishish mumkin.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: "O'zbekiston", 2017. - 48-b.
2. Qodirov K.B. Tabaqalashtirilgan ta'limda psixologik-pedagogik tashxis. Maktab o'qituvchilari hamda oliy o'quv yurt talabalar uchun ilmiy-metodik tavsiyalar. –Toshkent: O'zPFITI 2010. -27 b.
3. Qo'ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari: Dis.. ped. fan. dok. (DSc). - T.:TDPU, 2019. - 237 b.
4. Maxmonov U.A. Kredit-modul tizimida talabalar bilimni baholashning o'ziga xos xususiyatlari // Zamonaviy ta'lim. №3 (100). 2021. –B. -12-18.
5. Normurodova N.B. Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimidagi islohatlar // Ekonomika i sotsium. №6 (97)-1. 2022. –B. -1171-1175.
6. Nazarova F.U. Oliy ta'limda baholash tizimini takomillashtirish xususiyatlari G'G' Zamonaviy ta'lim №4. 2017. -B. -17-23.
7. Tolipova J.O. Oliy ta'lim tizimida kompetentsiyaviy yondashuvni amalga oshirish muammolari G'G' O'zbekiston Respublikasida ta'lim uzluksizligi va uzviyligini ta'minlash: ustuvor yo'nalishlar va dolzarb vazifalar. Ilm. anj. To'p. 2018 yil 15 may. –T.: TDIU, 2018. - 227 b
8. Hasanov R., Xayrov R. O'quvchi qobiliyati, tashxis va tabaqalashtirilgan ta'lim. G'G' Maktab va hayot.- 2010. -№7-8 (75-76) –T.-2-5 b.
9. Xayrov R.Z. Pedagogik tashxis, tabaqalashtirilgan ta'lim va o'quvchi qobiliyati. TDPU "Ilmiy axborotlari" ilmiy-nazariy jurnali. –T.: TDPU. 2020. 4-son. -220-226 b.
10. Хайров Р.З. Совершенствование подготовки будущих педагогов изобразительного искусства к обучению живописи на основе индивидуального подхода // Вестник ГулГУ ОАК. -Гулистан. -№3 (95) -2022. –С. 20-24.
11. Xayrov R.Z. Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarga individual yondashuv. Monografiya. -T.: Ilm Ziyov Zakovat. 2021. -102 bet.